

**BOLALARNI SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHIDA OILA
TARBIYASIDAGI MUHIM OMILI**

Bekimbetova Gulchexra To'lebaevna

Taxtako 'pir tumani 6 - sonli maktab psixologi

ANNOTATSIYA:*Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. O'zining xarakteri qizikishi va qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ana shu ruhiy xususiyatlar rivojlanib ma'lum bir bosqichiga etgani uni mukammal, kamol topgan inson deyiladi.*

Kalit so'zlar: *rivojlanishi, shaxs, kamol topish, inson, ruhiy rivojlanish, psixik jarayonlar*

KIRISH

Har bir shaxs oilada tug'ilib ijtimoiy hayotga mana shu o'z koshonani orqali kirib borar ekan, demak shaxs tarbiyasining ibtidosi deb uning ona ko'ksidalik payti, ya'ni homila payti-yu va tug'ilgandan atrof-muhitni qamrab olgan uni mana shu hayotga olib kelganoilasi va ota-onasining ilk tarbiyaviy ta'sirlarini aytish joizdir. Albatta bola boshlang'ich ijtimoiylashuvni aynan oila bag'rida oladi. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari namunasida u boshqa insonlar bilan muloqot qilishni o'rganadi, bola ularning xulqatvori va munosabatlar shakllarini anglab boradi va ushbu tushunchalar uning o'smirlik va balog'at yillarida ham saqlanib qolishi tabiiy.

Ota-onaning farzandini noto'g'ri xatti-xarakatiga nisbatan reaksiyasi, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlari xarakteri, oiladagi garmoniya yoki disgarmoniya darajasi, qondosh aka-uka va opasingillar o'rtasidagi munosabatlar xarakteri oilada va undan tashqarida bola agressiv xulq-atvorini belgilab beruvchi hamda uning balog'at yillarida atrofdagilar bilan quradigan munosabatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatilganidek oilaviy ijtimoiylashuvning Qadri va ahamiyati

shundan iboratki, shaxs katta va mustaqil hayotga, shu jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi. Birinchidan shaxs o'ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama barkamol, yetuk, aqlli, sog' va salomat shaxs bo'lib kamol toppish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash karkki, oila undagi sog'lom muhitda bola jamiyatda to'laqonli yashash, o'ziga o'xshagan shaxslar bilan muloqotga kirishib, murosa qilish, hamjihatlikda ish yuritish, kasb va hunarli bo'lib yetishish, muomalada axloq-odob qoida va normalariga bo'ysunishni o'rganadi, psixologik jihatdan ham tayyorlanadi.

Inson rivojlanishi bu murakkab jarayon hisoblanadi. Inson rivojlanishi asosan tashqi va ichki kuchlar ta'siridan bo'ladi. Tashqi ta'sir omillariga tabiiy va ijtimoiy muhit kiradi. Ichki omillarga biologik va irsiy omillar kiradi.

Oila muhiti – bu muhit Inson shakllanishiga muhim ahamiyatga ega. Chunki bola ko'z ochib avvalo ota-onasini, bobo-buvisini ya'niy oila a'zolarini ko'radi. Uning jismoniy va ruhiy rivojlanish davri oila ta'sirida shakllanadi. Agar oilada islomiy muhit mavjud bo'lsa axloqi go'zal va fazilatli bo'lib ulg'ayadi. Bola rivojlanishida oila muhitining ta'siri - Bola rivojlanishida oila muhitining roli juda katta. Oila bolaning ilk ijtimoiy muhitini tashkil etadi va uning hayotining birinchi yillarida o'zgaruvchan va asosiy rivojlanish bosqichlarini belgilaydi. Oila, bolani nafaqat fiziologik, balki psixologik, hissiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois, oila muhiti bolaning o'zini qanday his qilishidan tortib, uning jamiyat bilan o'zaro munosabatlariga qadar barcha sohalarda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu maqolada oila muhitining bola rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqamiz.

Bola o'zining hissiy rivojlanishini birinchi navbatda oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlar orqali boshlaydi. Ota-ona va boshqa oila a'zolari bolaning hissiyotlarini tushunish va ularga javob berish orqali uning o'zini qanday his qilishini shakllantiradilar. Masalan, ota-ona tomonidan berilgan sevgi, e'tibor, qo'llab-quvvatlash va nazorat, bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va uning xavfsizlik hissini mustahkamlaydi. Shuningdek, bolada hissiy barqarorlik, o'zini ifoda etish va boshqalarga nisbatan empatiya rivojlanadi.

Agar oila muhitida doimiy ravishda ziddiyatlar va salbiy muomala mavjud bo'lsa, bolada hissiy noaniqlik, xavotir va stress holatlari yuzaga kelishi mumkin. Bu, bolaning o'zini hurmat qilishida, o'ziga bo'lgan ishonchida va boshqa insonlarga nisbatan ishonchli munosabatlarda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Oila psixologik rivojlanishda ham muhim rol o'ynaydi. Bola, o'zining psixologik holatini va munosabatlarini oila ichidagi vaziyatlarga qarab shakllantiradi. Ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bolaga qanday psixologik modellarga asoslanish kerakligini ko'rsatadi. Agar otaona o'rtasida ijobiy munosabatlar mavjud bo'lsa, bola o'zini xavfsiz va barqaror his qiladi, bu esa uning psixologik holatini yaxshilaydi. Shuningdek, ota-onaning bolaga qarashlari va ularni tarbiyalash uslubi, bolaning o'z psixologik holatini qanday boshqarishini belgilaydi.

Psixologik barqarorlikka ega bola, o'z muammolarini hal qilishda va qiyinchiliklarga qarshi kurashishda ko'proq chidamlilikka ega bo'ladi. Aksincha, ota-ona tomonidan e'tiborsizlik yoki haddan tashqari qat'iyatlilik bolada psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa uning emosional va ijtimoiy qobiliyatlariga ta'sir qiladi. Oila, bolaga ilm-fan, bilim va tafakkurning asoslarini o'rgatishda muhim omil bo'ladi. Bolaning o'qish, yozish va umumiy intellektual faoliyatga qiziqishini shakllantirishda ota-ona muhim rol o'ynaydi. Kitob o'qish, yangi mavzularni muhokama qilish va yangi bilimlarni o'rganish uchun oila muhitida qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratilishi bolaning aqliy rivojlanishini tezlashtiradi. Ota-ona bilan suhbatlar, ular tomonidan berilgan savollar va muhokamalar, bolaning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Bola oila muhitida o'zining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kerakli rag'batlantirishni olish kerak. Bunday muhitda bolaning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi kuchayadi va u maktabda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Oila, bolaning jamiyat bilan qanday munosabatda bo'lishini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Oila muhitida bola ijtimoiy qadriyatlarni o'rganadi, boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lishni va ijtimoiy me'yorlarga amal qilishni

o'rganadi. Ota-onalar va oiladagi boshqa a'zolar bolaning jamiyatdagi o'rni va uning boshqalar bilan muloqot qilishini belgilab beradi. Agar bola oilasida sog'lom ijtimoiy munosabatlarni kuzatsa, u o'zini jamiyatda hurmatli va faollik bilan olib boradi. O'zining ijtimoiy faolligini rivojlantiradi va boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishga qodir bo'ladi.

Oila, bolaning shaxsiyatini shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib, uning qadriyatlari, axloqiy me'yorlari va hayotga qarashlari oila ichida o'rganiladi. Ota-onalar tomonidan bola tarbiyasida qo'llaniladigan yondashuvlar, unga o'zini qanday tutish va boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lishni ko'rsatadi. Oila muhitida shakllangan ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar, bolada mustahkam shaxsiyatning rivojlanishiga yordam beradi.

Odanning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxs nomini olish uchun ijtimoiy – iqtisodiy hayot va tarbiya kerak, shu sababli pedagogika fani bolaning shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga etishi qonuniyatlarini, unga ta'sir e'tuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni, rivojlanish jarayonlariga aloqador davrlarni aniqlash kerak, shunga asosan pedagogika fani shaxsning rivojlanishida ta'lim o'qitish tarbiya va bola faolligi, o'z-o'zini tarbiyalash bosqichlarini ham aniqlash lozim.

Inson tirik biologik mavjudotdir. Demak uning rivojlanishiga tabiat qonunlari, biologik va ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlari uzviy ta'sir e'tadi, insonni kamol toptiradi.

Inson hayot faoliyati davomida o'zgarib, shakllanib rivojlanib boradi. Rivojlanish bu bola vaznining oshishi, suyak va mushak sitsemasi, tanosil a'zosi faoliyatining kamol topishi, aql zakovatining shakllanishiga aytiladi. Shaxsning kamol topishida va uning xulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bo'lavermaydi. Chunki uning xulqiga, munosabatlariga, aloqalariga yoshi, bilim, odatlari, tashabbusi va nihoyat vaziyat ham ta'sir qiladi. Ms: bir xildagi ta'sirida har xil bola turlicha munosabatda bo'ladi, bu ayni paytda bolaning ehtiyoji qandayligiga ham bog'liqdir.

Shaxsning kamolga yetishida irsiyat, ijtimoiy muhit ham, ta'lim tarbiya va

nihojat o'zining mutsaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga e'ga. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, shu jamiyatdagi qonun qoidalarga asosan kamol topadi. Shu jamiyatning moddiy va ma'naviy rivojlanganligi, uning shaklanishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Shu davlatda texnika, texnologiya, avtomatika, telemexanika, elektrlashtirish, gaplashtirish va hokozalar uning ongiga, aqliy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir e'tadi. Odam atrof muhitini qancha ko'p bilsa, uning ongi shuncha ko'p o'sadi.

Demak shaxsning kamolatga etishtirish jamiyat rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.

Irsiyat deganda, bolaga ota-onadan va umuman yaqin ajdodlaridan, ya'ni nasldannaslga o'tadigan biologik xususiyat va o'xshashliklarga aytiladi. 16 -asr falsafasida vujudga kelgan premorfizm okimi namoyondalarning fikricha odam bolasi xali ona pushtidaligidayok bo'lajak shaxsga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi, rivojlanish esa ana shu xususiyatlarning miqdoriy borishidir.

Amerikalik pedagog va ruxshunos E.Tordayk fikricha, shaxsning barcha xususiyatlarni, shu jumladan ong va aqliy qobiliyat ham nasldan-naslga o'tadi, u boshqa organlar kabi tabiatdan berilgan. D.Dyunning fikricha haqiqiy tarbiya tashqaridan kiritilmaydi, u odam bilan dunyoga kelgan, tarbiya uni o'stiradi.

Nemis ruhshunosi V.Pteren yangi tug'ilgan bola xali inson emas deb hisoblaydi, u faqat sut emizuvchi hayvondir. Yarim yoshdan u maymunga tenglashadi. Ikki yoshda bola boshlang'ich insonlik holatiga yetadi. (yuradi, gapiradi) 5 yoshda ibtidoiy jamiyat odamlariga mos keladi, o'smirlik davrida o'rta asr ongini aks ettiradi va yetuklik yoshidagina (17,18) mavjud jamiyatning madaniy darajasiga mos ong egasi bo'ladi. Ba'zi biogenetiklar 13, 10 va xatto 8 yoshdan ham mavjud jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'la oladi deb hisoblaydi. Avstraliyalik ruxshunos K. Byuller hatto bolaning axloqi jihatidan o'sishini ham irsiyatga bog'laydi. Bola hayotning datslabki kunlaridan boshlab o'zini o'rab olgan muhitning ta'siri otsida o'sadi va ulg'ayadi.

Ayni vaqtda bolaga insonlarga xos xususiyat ham irsiyat yo'li bilan tug'ma o'tadi. (aqliy va jismoniy mehnat qilish va shu h.) Ammo bo'lar tugma imkoniyatlar

bo'lib, ularning rivojlanishi uchun inson bolasi insoniy muhitda, odamlar yashab, ular bilan aloqada bo'lishi kerak. Chunki inson biologik mavjudot sifatidagina emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanadi va kamolatga yetadi. Demak shu yo'l bilan o'tgan aholining o'sishi kamol topishi uchun aqliy faoliyat, shart sharoit bo'lishi kerak.

Jamiyatning bolalar ongiga ta'sir o'tkazishi asosan ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. Bolani o'rab olgan muhit mehnat va til oqibat natijasida vositasiga aylanadi. Shu sababli inson kamolatida

I Ta'lim va tarbiyaning yetakchilik qilishiga imkon berish darkor chunki ta'lim va tarbiya jarayonida kishi organizmning o'sishi va muhitning ta'sir bera olmaydigan narsalarni o'rganib oladi.m.s gaplashishni muhitdan yozish va o'qishni maxsus ta'lim yo'li bilan o'rganadi.

2.Ta'lim va tarbiya yordamida hatto kishining ba'zi tug'ma kamchiliklari ham kerakli tomonga o'zgaradi.(kar.kur va bosh).

O'qish yozishning o'rganib boshqalar ongiga bir xil ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri natijasida ruy bergan kamchiliklarni tugatish mumkin.(qo'pollik, so'kish, karta o'ynash, chekish va x)

4.Ta'lim jarayonida bolaga bilimlar, ko'nikma va malakalar hosil bo'libgina qolmay, balki, ilmiy dunyoqarash 29 yoshida akademik bo'lgan. Viktor Gyoge 25 yoshda Frantsiya fanlari akademiyasining maxsus yorligini olgan. N.I.Lobachevskiy 14 yoshda Qozon universitetiga kirib 23 yoshida professor bo'lgan.

XULOSA

Yuqorida qayd e'tilgan omillardan tashqari ijtimoiy taraqqiyoti shaxsning o'zi ham faol ishtirok etgandagina undagi tug'ma layoqat uyg'onadi, iste'dodlari, qobiliyatlari o'sadi.Bu borada uning o'z ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning to'xtovsiz izlanishi, sabr toqat bilan ko'nikma va malakasini oshirish, kishilar bilan muloqotda bo'lish va boshqa xususiyatlar ham zarur bo'ladi. Umuman pedagogik jihatida to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsning aqliy, axloqiy. Etsetik, jismoniy, irodaviy rivojlanishiga ta'sir e'tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Munavvarov A.K. Pedagogika, Toshkent, «O'qituvchi», 1996, 236-62 b.
2. Tursunov I, Nishonaliyev U.-Pedagogika kursi: darslik, -Toshkent «O'qituvchi», 1997, 26-35 b.
3. Gaybo'llaev N. va b. Pedagogika, Toshkent, 2000, -25-38 b
4. Baranov S.P. va b. Pedagogika, Toshkent. «Uktuvchi». 1975. 26-41 b